

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 15/31.08.2022.T.73.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

MUKARRAMOV RAMAZON XUSINOVICH

O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARIDA KO‘CHKI XAVFINI BAHOLASH

05.08.02 – Temir yo‘llar va yo‘l xo‘jaligi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Technical Sciences**

Mukarramov Ramazon Xusinovich

О'zbekiston temir yo'llarida ko'chki xavfini baholash.....5

Мукаррамов Рамазон Хусинович

Оценка оползневой опасности на железных дорогах Узбекистана.....21

Mukarramov Ramazon Khusinovich

Assessment of the danger of landslides on the railways of Uzbekistan41

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works45

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 15/31.08.2022.T.73.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

MUKARRAMOV RAMAZON XUSINOVICH

O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARIDA KO‘CHKI XAVFINI BAHOLASH

05.08.02 – Temir yo‘llar va yo‘l xo‘jaligi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/T4020 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-saytida (www.tstu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Djabbarov Saidburxon To‘laganovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Shayaxmetov Saulet Berlikashevich
texnika fanlari doktori, professor

Abdukamilov Shavkat Shuhratovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

“O‘zog‘irsanoatloyiha” instituti AJ

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi DSc 15/31.08.2022.T.73.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil “05” may soat 15³⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100167, Toshkent sh., Temir yo‘lchilar ko‘chasi, 1-uy.

Tel: (99871) 299-00-01; faks: (99871) 293-57-54; e-mail: rectorat@tstu.uz, tashiit@exat.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№240 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100167, Toshkent sh., Temiryo‘lchilar ko‘chasi, 1-uy. Tel: (99871) 299-05-66)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “24” aprel kuni tarqatildi.
(2025 yil “24” apreldagi №20 raqamli reyestr bayonnomasi).

A.I. Adilxodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
t.f.d., professor

U.Z. Shermuxamedov

Ilmiy darajalarni beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

A.A. Ishanxodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda temir yo‘llarni tabiiy va texnogen turdagi ofatlardan himoyalash, ya’ni ko‘chkilardan himoya qilish, ko‘chki oqibatlarini kamaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, ko‘chki xavfini baholash masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda, jumladan, Rossiya, Yaponiya, Germaniya, AQSH, Angliya, Xitoy, Janubiy Koreya, Chexiya, Ispaniya, Italiya va boshqa mamlakatlarda murakkab iqlim va topografik sharoitdagi temir yo‘llarni ko‘chkilardan saqlash uchun himoya inshootlarini yaratish, qiyaliklari ustuvorligini ta’minlash bo‘yicha turli xildagi ilmiy-tadqiqot ishlari orqali amalga oshirilmoqda. Bu borada tog‘li hududlardan o‘tgan temir yo‘llarda yuzaga keladigan grunt ko‘chkilari paydo bo‘lishi sabablarini aniqlash va ko‘chkilarning sodir bo‘lishini prognoz qilish, ko‘chki xavfini baholash bo‘yicha mavjud usullarini takomillashtirish, ko‘chkilarning sodir bo‘lishini modellashtirish va ko‘chki xavfini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jahonda iqtisodiy – ijtimoiy ob’yektlarni ko‘chki xavfidan saqlash uchun ko‘chki qiyaliklari ustuvorligini ta’minlash va himoya inshootlarini yaratish, xavfli geologik jarayonlarni shakllanish va rivojlanish mexanizmini aniqlash, ilg‘or texnologiyalar qo‘llab monitoring qilish, ehtimoli yuqori xavflarini baholash uchun turli usullarga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, ko‘chki xavfi mavjud hududlarda temir yo‘l yer polotnosini ustuvorligini ta’minlash, ko‘chkilarning salbiy ta’sirini kamaytirish (bartaraf etish), ko‘chki xavfini baholash usulini zamonaviy matematik modellar yordamida ishlab chiqish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda barcha turdagi transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish, jumladan temir yo‘l transporti inshootlarini loyihalash, qurish, ulardan foydalanish yo‘nalishida yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish hamda xavfli geologik jarayonlarni aniqlash, ularni temir yo‘l obyektlariga joylashgan hududlarda doimiy kuzatishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda hamda ma’lum natijalarga erishilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, jumladan 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli farmonining 197 bandida ko‘rsatilgan vazifalar, ya’ni ... yangi temir yo‘l liniyasini qurish loyahasini jadallashtirish ...”¹, kabi vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda ko‘chki xavfi mavjud hududlardagi temir yo‘llarda barcha toifadagi poyezdlarni xavfsiz va uzluksiz harakatini ta’minlash jiddiy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 1 fevraldagi PF-5647 “Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017 yil 2 dekabrda PQ-3422-son “2018-2022 yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni

yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, hamda maskur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II.”Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Murakkab tabiiy-iqlim shart-sharoitlarida, ko‘chki xavfi mavjud hududlarda barpo etilgan temir yo‘l izining ekspluatatsion ishonchliligini ta‘minlash, temir yo‘l yer polotnosining ustuvorligini ta‘minlash bo‘yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar dunyodagi yetakchi mamlakatlarning ilmiy markazlari, universitet va ilmiy-tadqiqot institutlarida, jumladan: Peterburg davlat temir yo‘llar universiteti (Rossiya), Rossiya transport universiteti (Rossiya), Temir yo‘l transporti Ilmiy-tadqiqot instituti (VNIIT), Chang‘an universiteti (Xitoy), Auburn universiteti, Qurilish va atrof-muhit muhandisligi, Auburn (AQSH), Milan politexnika instituti, Fuqarolik va atrof-muhit muhandisligi fakulteti, Milan (Italiya), Tokio shahar universiteti, Geotexnik-geoekologik muhandislik laboratoriyasi, (Tokio), akademik M. Adishev nomidagi O‘sh texnologiya universiteti (Qirg‘iziston), shuningdek Toshkent davlat transport universiteti (O‘zbekiston) kabi muassasalarda olib borilmoqda.

Ko‘chki xavfi mavjud hududlardagi temir yo‘l yer polotnosiga ko‘chkilarning salbiy ta‘sirini baholash, ulardan himoya qilish, yer polotnosi ustuvorligini ta‘minlash; ko‘chkilarning holatlari va sabablari muammolari va ularga qarshi kurashish usullari, shu jumladan, foydalanib kelinayotgan temir yo‘llarning ishonchli ishlashini ta‘minlash maqsadida: G. M. Shaxunyans, G. S. Pereselenkov, V.I. Gritsik, M.N. Goldshteyn, K.A. Gulakyan, Y.P. Yemelyanova, G.S. Zolotarev, G.A. Krukovskiy, N.N. Maslov, V.V. Vinogradov, I.V. Prokudin, V.S. Fedorenko, T.G. Yakovleva, G.G. Konshin, A.L. Revzon, F.P. Savarenskiy, Dang Ngok Txan va boshqa olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

O‘zbekiston Respublikasida murakkab tabiiy-iqlim sharoitlarda temir yo‘llarning ekspluatatsion ishonchliligini oshirish, shuningdek temir yo‘l yer polotnosiga ko‘chki xavfini baholashga qaratilgan tadqiqotlar bilan A.X. Abdujaborov, M.M. Miraxmedov, S.T. Djabbarov, S.S. Niyazbekov, R.A. Niyazov, G.A. Bimurzayev, A.Y. Mamadaliyev kabi olimlar shug‘ullanishgan.

Biroq, O‘zbekiston hududidagi grunt xususiyatlarini hisobga olgan holda murakkab tabiiy-iqlim sharoitlarida barpo etilgan temir yo‘llar yer polotnosining ishonchliligini ta‘minlash bo‘yicha bajarilgan mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish zarur. O‘tkazilgan tadqiqotlar ko‘rsatishicha, tog‘li hududlardagi temir yo‘llarga ko‘chki xavfi va uning salbiy ta‘sirini baholash bo‘yicha muammolar hamon yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat transport universitetining 2024 yil 26 fevralidagi №10-F

farmoyishi asosida 2031065-sonli, 2024 yil 5 noyabridagi 81-F farmoyishi asosida 63/2024-sonli xo‘jalik shartnomalari bo‘yicha bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tog‘li sharoitdagi temir yo‘llarda poyezdlar oqimining xavfsiz va uzliksiz harakatini ta‘minlash maqsadida ko‘chki xavfini baholash usulini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ko‘chki xavfi mavjud hududlarda temir yo‘l infratuzilmasi obektlari, jumladan yer polotnosini qurish va undan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilish;

temir yo‘l yer polotnosi ustuvorligini boshlang‘ich ma‘lumotlar yetarli bo‘lmagan sharoitlarda va hisoblash natijalarini ehtimoliy modellashtirish asosida baholash;

temir yo‘l yer polotnosi ustuvorligini ehtimoliy usullarga asoslanib baholash;

transport qurilishi obektlarining ishonchliligi va ustuvorligini tahlil qilishda ko‘chish xavfini baholashning turli usullarini ratsional qo‘llash sohasini belgilash;

ko‘chki hodisalarining shakllanishi va rivojlanishiga olib keluvchi asosiy omillar ta‘sirini aniqlash;

tog‘ yonbag‘rida joylashgan temir yo‘l yer polotnosining ko‘chish xavfini baholash va boshqarish usulini takomillashtirish.

Tadqiqot ob‘yekti sifatida O‘zbekiston temir yo‘llarining murakkab tabiiy-iqlim, relef va grunt sharoitlarida joylashgan mavjud Toshg‘uzor-Boysun-Qumqo‘rg‘on temir yo‘lining 103-104 km da joylashgan qismi qabul qilingan.

Tadqiqot predmeti sifatida tog‘li hududlarda barpo etilgan temir yo‘l yer polotnosiga ko‘chki xavfini baholash olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ehtimollik nazariyasi, chegaraviy muvozanat usuli bilan yonbag‘irlarning ustuvorligini hisoblash, chekli elementlar usuli orqali ko‘chki uchastkasi yuzasining holatini matematik modellashtirish, shuningdek mustahkamlikning kamayish nazariyasi va mustahkamlikni yoy uzunligi usulida pasaytirish usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tog‘ yonbag‘rida joylashgan temir yo‘l yer polotnosining dala kuzatuvlari natijalari asosida siljishga moyillik, kelib chiqish ehtimoli xususiy koeffitsiyentlari, hamda siljish ehtimoliy kotegoriyasi va yetkaziladigan zarar toifasi orqali ko‘chki xavfini baholash imkonini beradigan ball salmoqli usuli takomillashtirilgan;

qisqa vaqt ichida va muhandislik-geologik qidiruv ma‘lumotlari yetarli bo‘lmagan holda temir yo‘l yer polotnosiga ko‘chki xavfi darajasi va uning ustuvorligini baholash bo‘yicha tasniflash imkonini beradigan jadval shakllar va vazn koeffitsiyentlari orqali baholashning yarim miqdoriy usuli takomillashtirilgan;

chekli elementlar usuli orqali temir yo‘lda olib borilgan muhandislik-geologik qidiruvlarining geologik kesimlari asosida xavfli uchastkalarining ishonchliligi va yer polotnosining ustuvorligi baholangan;

loyihalash jarayonini inobatga olgan holda transport infratuzilmasi ob‘ektlariga ko‘chish xavfini oldini olish uchun muhandislik ishlari kompleksi (tadbirlari) bilan boshqarish usuli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

temir yo‘llarda ko‘chki xavfini boshqarish bo‘yicha ishlab chiqilgan baholash metodikasi va tavsiyalari himoya inshootlarini loyihalash, qurish va ulardan foydalanishda asoslangan muhandislik yechi hamda qarorini qabul qilishga erishilgan. Ko‘chkiga moyil yonbag‘ir va qiyaliklar ustuvorligi, ko‘chki xavfini baholash uchun taklif etilayotgan usul muhandislik-geologik qidiruvlar (tadqiqotlar) natijalari yetarli bo‘lmagan taqdirda himoya inshootlarining asoslangan loyihaviy yechimlari ishlab chiqilgan;

geografik axborot tizimlari (GAT) muhitida muhandislik-geologik qidiruvlar (tadqiqotlar) amalga oshirilgan uchastkalar ko‘chki xavfi iyerarxiyasini tahlil qilish hamda hududiy ko‘chki xavfini baholash usuli ishlab chiqilgan;

ishning nazariy, uslubiy qoidalari va ko‘chki xavfini hamda ko‘chki jarayonlari xavfini baholash bo‘yicha xulosalardan o‘quv va ilmiy-tadqiqot maqsadlarida foydalanishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqoti natijalari, xulosalar va ishlab chiqilgan usul qoidalarning ishonchliligi, o‘rganilayotgan tog‘ yonbag‘irlari va ularining haqiqiy muhandislik-geologik sharoitlari bilan solishtirish, ko‘chkidan himoyalashning haqiqiy mavjud inshootlarini loyihalashda taklif etilayotgan usullarni qo‘llash amaliyoti, shuningdek, zamonaviy dasturiy ta‘minot tizimlari va gruntlarning fizik-mexanik xususiyatlari bo‘yicha real (haqiqiy) ma‘lumotlar bazasidan foydalanish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chekli elementlar usuli (CHEU) bilan modellashtirish natijalari turli xil faktor(omil)larni (gruntning namligi, yer polotnosini yuklanganligi, seysmik ta‘sir va h.k.) yonbag‘ir ustuvorligiga ta‘sir darajasini, taklif etilgan yarim miqdorli usul yordamida xavfni baholash o‘z vaqtida ko‘chki xavfi mavjud uchastkalarni aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati temir yo‘l yer polotnosiga ko‘chki xavfini baholash, unda hosil bo‘ladigan zo‘riqish-deformatsiyalanishlarni turli holatlarda aniqlash va geoinformatsion ma‘lumotlar yetarli bo‘lmagan hollarda himoya inshootlarini qurish ketma-ketligini belgilash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekiston temir yo‘llarida ko‘chki xavfini baholash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarda olingan natijalar asosida:

“Temiryo‘linfratuzilma” AJ Yo‘l xo‘jaligi boshqarmasi tasarrufidagi Qarshi MTU (Toshg‘uzor-Boysun-Qumqo‘rg‘on temir yo‘lining 103 km) temir yo‘lida ko‘chkining yuqori xavfi mavjud uchastkalarini aniqlashga erishilgan hamda “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tasarrufidagi “Temiryo‘linfratuzilma” AJ Yo‘l xo‘jaligi boshqarmasida joriy qilingan (Transport vazirligining 2024 yil 05 dekabrda 4/E1647-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ko‘chkiga moyil bolgan tog‘ yonbag‘ir va qiyaliklar ustuvorligi, ko‘chki xavfini baholashning taklif etilayotgan usuli muhandislik - geologik qidiruvlar (tadqiqotlar) natijalari yetarli bo‘lmagan taqdirda himoya inshootlarining asoslangan loyihaviy yechimlarini qabul qilish ta‘minlangan;

Toshg‘uzor-Boysun-Qumqo‘rg‘on temir yo‘lining “Chashmayxafizon – Aqrabot” uchastkasining 103-kilometrida hudud relefining sonli modelini (RSM) ni yaratish uchun “Trimble Sure Scan” texnologiyasidan foydalanish an‘anaviy

usullarga nisbatan dala ishlari sifatini oshirish, kameral ishlar uchun ishonchli ma'lumotlar olish, dala ishlari muddatini qisqartirish imkonini yaratishi aniqlangan bo'lib, O'zbekiston tog' – kon geologiya vazirligi huzuridagi "Davlat monitoring xizmati" da joriy etilgan (O'zbekiston tog' – kon geologiya vazirligining 2024 yil 04 dekabrda 08-4517-son ma'lumotnomasi). Natijada, yer osti suvlarining sathi va nishabi yonbag'ir ustuvorligiga eng katta ta'sirga ega ekanligi, ularning umumiy ta'siri 58% dan ortiqligi aniqlandi hamda Qarshi kuzatish stansiyasi ishlarining asoslariga aniqlik kiritishga imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 4 ta xalqaro va 6 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish, jumladan, 7 ta ilmiy maqola, ulardan 1 tasi xorijiy jurnalda, 6 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarida chop etilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi tomonidan 1 ta hisoblash dasturiga guvohnomalar olingan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 118 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya tadqiqotini bajarishning dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan. O'zbekiston Respublikasida fan va texnika rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiq ma'lumotlar keltirilgan, olingan natijalarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati belgilangan, tadqiqot natijalarining ishlab chiqarishga tadbiq etilishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi, shuningdek chop etilgan ilmiy ishlar to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.


Disstatsiyaning "**Temir yo'l infratuzilmasini ko'chki xavfi mavjud hududlarda loyihalash, qurish va tasarruf etish**" nomli birinchi bobida tog' va tog' oldi hududlarida xavfli eksogen geologik jarayonlarning rivojlanish mexanizmi, ularni keltirib chiqaradigan omillar, sodir bo'lishi, salbiy oqibatlari; infratuzilma obektlarini ko'chkidan himoyalash muammolari va muhandislik yechimlari, uni oldini olish bo'yicha qo'llaniladigan chora-tadbirlar o'rganilgan adabiyotlar, hamda ilmiy ishlar asosida tahlil qilingan.

Qabul qilingan tadqiqot obektida hosil bo'lgan ko'chkilar davriyligi, hosil bo'lishi mexanizmi, hajmi, miqdori va turlari bo'yicha o'rganilgan va tahlil natijalari chiziqli ko'rinishlarda keltirilgan (1-4 rasm).

Tadqiqot obekti Toshg'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'lga tutash hududlarda 2006-2020 yillar mobaynida kuzatilgan va qayd etilgan xavfli geologik jarayonlar umumiy soni 370 tadan ziyodni tashkil etgan. Miqdor jihatidan ularni yil bo'yicha faolligining birinchi davri 2007-2010 yillarga, keyingi bosqichi 2012-2015 yillarga to'g'ri kelgan (1-rasm). Hududning hozirgi davrdagi holati ko'p jihatdan sodir bo'layotgan ekzogen jarayonlar bilan bog'liq holda o'zgarib bormoqda.

Relifni o'zgartiruvchi omillardan biri sodir bo'layotgan tabiiy va texnogen ko'chkilardir.


Toshg'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'li hududida sodir bo'lgan xavfli geologik jarayonlarni kuzatish va qayd etish ma'lumotlarining tahlili natijasida hozirgi kunga qadar vujudga kelgan ko'chki jarayonlarini turlari bo'yicha qo'yidagilarga ajratish mumkin: ko'chkilar, tosh qulashi, ko'chki yoriqlari, oquvchan ko'chkilar, cho'kishlar va qulab tushishlar. Shu bilan birga ta'kidlash lozimki, asosan 4 turdagi xavfli geologik jarayonlar 355 marotaba sodir bo'lgani kuzatilgan (ya'ni 96 %,) (2-rasm). Ushbu hududda eng keng tarqalgan ko'chkilar 1000-10000 m³ hajmga ega (40%). Shu bilan birga qayd etilgan 7% ko'chkilarning hajmi 1000000 m³ ortiq bo'lgani kuzatilgan (3-rasm). Bunda ko'chkilarning asosiy qismi sirpanuvchi mexanizmga taalluqli. Agar ko'chki yoriqlari hisobga olinsa, ular ko'chkilarning umumiy sonini 73% tashkil etadi (4-rasm).




1- rasm. Temir yo'li hududida sodir bo'lgan xavfli muhandis-geologik jarayonlarni yillar kesimida taqsimlanishi



2- rasm. Temir yo'li hududida xavfli muhandis-geodinamik jarayonlarni turlari bo'yicha taqsimlanishi




3- rasm. Ko'chkilarni hajmi bo'yicha taqsimlanishi



4-rasm. Temir yo'li hududida ko'chkilarni hosil bo'lish mexanizmiga ko'ra taqsimlanishi

Sodir bo'lgan barcha turdagi ko'chki jarayonlari 2007-2015 yillarga to'g'ri keladi va 88% ning paydo bo'lishi hududda qurilish ishlari boshlangandan so'ng to qiyaliklar ustuvorligini mustahkamlagunga qadar davom etgan.



5-rasm. Temir yo‘ldagi ko‘chki (a. 195,7 km, b. 116,8-116,9 km)

2013-yilda temir yo‘lining 195,7 km dagi uchastkasida, yo‘l polotnosidan 30-40 m masofada Ajrimsoyning chap yonbag‘rida ko‘chki hosil bo‘lgan (5-rasm), buning oqibatida uzunligi 40-50 m va balandligi 10-12 m bo‘lgan sun‘iy to‘siq hosil bo‘lib, yog‘ingarchilik vaqtida ko‘lmak paydo bo‘lish ehtimoli mavjud. Ushbu dambani buzilishi temir yo‘lga katta xavf tug‘dirishi mumkin.

Xavfli muhandislik-geologik jarayonlar rivojlanayotgan hududlarda temir yo‘l polotnosining ustuvorligi ko‘chkiga qarshi kompleks chora-tadbirlar bilan ta‘minlanadi (6-rasm).



6-rasm. Temir yo‘lidagi himoya inshootlari

Ko‘chki jarayonining temir yo‘l yer polotnosi ustivorligiga ta‘sirini baholash uchun ko‘chkining faollashishi ehtimoli va salbiy oqibatlarining yuzaga kelish ehtimolini aniqlash, ya‘ni tahlil qilish va xavfni baholash kerak. Xavfni tahlil qilish va baholashning maqsadi muayyan obektning xavfsiz ishlashini ta‘minlash uchun zarur ma‘lumotlarni olishdir.

Bajarilgan tadqiqotlarning tahlili natijasida tadqiqotlarning maqsad va vazifalari aniqlangan va ishchi gipoteza shakllantirilgan.

Tadqiqot ishining **“Temir yo‘l yonbag‘irlarining ustuvorligiga ta‘sir etuvchi omillar tahlili”** nomli ikkinchi bobida temir yo‘l joylashgan tog‘ yonbag‘rida ko‘chki jarayoniga sabab bo‘luvchi omillar xususiyatlari bo‘yicha batafsil yoritilgan.

Qiyaliklar va yonbag‘irlarning ustuvorlik darajasining sonli ko‘rsatkichi sifatida ustuvorlik koeffitsiyenti (K_{us}) xizmat qiladi. Ushbu atama ma‘nosi siljishlarning ehtimoliy yuzasi yoki zonasi bo‘ylab joylashadigan siljishga qarshilik jami kuchlari momentlarining (K) hamda jami surilish kuchlari momentlarining nisbatini bildiradi, ya‘ni:

$$K_{us} = \frac{\sum M(R)}{\sum M(T)} \quad (1)$$


Umumiy ko‘rinishda yonbag‘ir ustuvorligini aniqlashda quyidagi usullardan foydalaniladi:

- chegaraviy muvozanat usullari (CHMU);
- chekli elementlar usullari (CHEU).

Mazkur tadqiqot ishida ko‘chkilarni hosil qiluvchi omillarni baholash MIDAS GTS NX dasturiy kompleksida yaratilgan modelda amalga oshirilgan.


Gruntning fizik-mexanik xususiyatlarini o‘zgarishi Kulon-Mor modelida o‘rganilgan. Ko‘chki xavfi mavjud hududda keng tarqalgan gruntlar ustivorligi yonbag‘ir qiyaligi, qiyalik balandligi va grunt namligi kabi omillarga bog‘liqlik qonuniyatlari aniqlangan (7- rasm).

Gruntlarni fizik-mexanik xususiyatlarini laboratoriya sharoitida o‘rganish muvofiq ravishda balandligi 4 dan 16 m gacha va yer yuzining qiyaligi 15 dan 60° gacha bo‘lgan yonbag‘irlar ko‘rib chiqilgan. Dastlabki qiymat sifatida (K_0) balandligi 4 m va qiyaligi 15° yonbag‘irning ustuvorlik koeffitsiyenti qabul qilindi. 7-rasmdan ko‘rinadiki, qiyalik 45° ko‘tarilganida, ustuvorlik o‘rtacha hisobda qumli loy grunt uchun 48%, loyli qum grunt uchun 41% va loyli grunt uchun 32% kamayadi. O‘z navbatida, ichki ishqalanish burchagini ortishi va ilashishning kamayishi bilan qiyalikning ta’siri oshadi (loyli grunt da bu farq 25% yetadi).




7-rasm. Yer yuzining qiyaligiga ko‘ra yonbag‘ir ustuvorligining kamayishi (a. qumli loy, b. loyli qum, c. loy)

Balandlikning ahamiyati bundan kamroq bo‘lib, balandlik 12 m oshganida ustuvorlikni kamayish miqdori qumli loylar uchun 28%, loyli qumlar uchun 33%, loylar uchun 42% tashkil etadi (8-rasm).




8-rasm. Yonbag‘ir ustuvorligi o‘zgarishining balandlikka bog‘liqligi (a. qumli loy, b. loyli qum, c. loy)

Grunt suvlarini ustuvorlikka ta‘sirini aniqlash uchun yonbag‘irning 25, 50, 75 va 100% suv bosish holatlari ko‘rib chiqildi.



9-rasm. Ko‘chki chuqurligining o‘zgarishini yonbag‘ir yuzasining qiyaligiga bog‘liqligi (a. qumli loy, b. loyli qum, s. loy)

Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlarga asosan suvga to‘yingan grunt uchun ilashish va ichki ishqalanish burchagi qiymatlari tabiiy holatidagiga nisbatan 2 barobar kichik deb qabul qilingan.



10-rasm. Yonbag‘irning suvga to‘yinganlik darajasiga ko‘ra ustuvorligi o‘zgarishi

Gidrostatik va gidrodinamik bosimlar yonbag‘ir ustuvorligi koeffitsiyenti boshqa omillar o‘zgarish bo‘lgan hollarda 2,5-3,0 barobarga kamaytirishi aniqlandi. Grunt suvga to‘yingan holatda uning mustahkamlik tavsiflarini o‘zgarish darajasiga ko‘ra ustuvorlikni dastlabki qiymatiga nisbatan kamayish darajasi 0,4-0,6 tashkil etishi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Ko‘chki xavfni baholash va boshqarish usullari**” deb nomlanib, ko‘chki xavfi ehtimoliyligini aniqlash, uni baholash va boshqarish usulini takomillashtirishga bag‘ishlangan. Ko‘chki xavfi (H) deganda, mavjud tabiiy sharoitlarda yoki ularni taxmin qilinadigan o‘zgarishlarida siljish ehtimoli (E) ni kutilayotgan ziyon (zarar) (Z) ga ko‘paytmasi tushuniladi, ya’ni

$$H = E \cdot Z \quad (2)$$

Xavfli sharoitlarda qarorni qabul qilish jarayonini uch bosqichga ajratish mumkin:

- *baholash*, ya’ni xavfni identifikasiyalash hamda kattaligini aniqlash;
- *tahlil*, topilgan qiymatlarni solishtirish;
- *boshqarish*, analitik natijalarni reglamentlovchi qarorlarga o‘tkazish va ularning tartibini belgilashni nazarda tutadi.

Xavfning baholanishi ko‘chkini vujudga keltiruvchi ko‘plab omillarni aniqlash va hisobga olinishini, shuningdek hodisalarning turli xil rivojlanish ssenariylarini prognozlanishini talab etadi.

Xavfni baholash – bu xavflarni identifikasiyalash va prognozlashga, obektning zaiflik darajasini aniqlash va belgilangan vaqt ichida yo‘qotishlar ehtimolini belgilashga qaratilgan va ketma-ket bajariladigan harakatlar jarayonidir.

Turli xil XGJ xavfni baholashning ko‘plab usullari mavjud bo‘lib, ko‘chki xavfni baholashning ehtimollik va yarim miqdoriy usullari shular jumlasidandir.

Ehtimollik usulida ba’zi natijalarni ehtimollik zichligi funksiyasiga kiritilayotgan tasodifiy o‘zgaruvchilarga bog‘liqligini aniqlashdan iborat. Qiyalik va yonbag‘irlar ustuvorligini baholashga ehtimoliy yondashuv geotexnik parametrlarning mavjud noaniqliklarini ma’lum darajada hisobga olish imkoniyatini beradi.

Parametrlari turli o‘lchamlarda ifodalanuvchi bir nechta ko‘chki hosil qiluvchi omillarni biron bir obektga jamlangan ta’sirini aniqlashda balli vazn koeffitsiyentlariga asoslangan yarim miqdoriy usuldan foydalanish xavfni baholashda qo‘llaniladigan yondoshuvlardan biri hisoblanadi.

Ko‘chki jarayoni hodisasi uchun siljish V vujudga kelish ehtimolini quyidagi ko‘rinishda taqdim etish mumkin:

$$V = M \cdot D \quad (3)$$

bu yerda M - siljishga moyillikning integral ko‘rsatkichi;

D – ko‘chki jarayoni faolliki koeffitsiyenti.

Yonbag‘irni siljishga moyilligining integral ko‘rsatkichi M ni o‘rganib chiqilayotgan uchastkaning o‘ziga xos muhandis-geologik, gidrologik, relef xususiyatlarini hisobga olishga imkon yaratuvchi xususiy koeffitsiyent M_i larni jamlash yo‘li vazn koeffitsiyentlariga ko‘paytirish yo‘li bilan aniqlanadi

$$M = M_1 \alpha_1 + M_2 \alpha_2 + \dots + M_n \alpha_n \quad (4)$$

bu yerda $M_1, M_2, M_3, \dots, M_n$ - mos ravishda xudud reliefi, geologik tarkibi, yer usti va yer osti suvlarning rejimi, o‘simlik qatlami, yonbag‘irning tashqi ko‘rinishi, eroziya va nurash jarayonlari intensivligi, temir yo‘l ta’siri, tirgovuch devorlar

hamda muhandislik himoyaga tegishli yordamchi inshootlarning (lotoklar, suv o'tkazuvchi qurilmalar va h.k.) texnik holatini inobatga oluvchi moyillik koeffitsiyentlari.

Namoyon bo'lish intensivligini hisobga olgan holda ushbu koeffitsiyentlar uchun tegishli ballar belgilangan. Moyillik koeffitsiyentining eng katta miqdori sifatida yonbag'ir qiyaligini ta'siri qabul qilingan, hamda unga nisbatan qolgan moyillik koeffitsiyentlari uchun ballar belgilangan.

Xususiy siljishga moyillik ko'rsatgichlarining vazn koeffitsiyentlari matematik shartlarni bajarish orqali ifodalanadi (bu mezonlar yechimning optimalligi sifatida ham ishlaydi).

$$\sum_{i=1}^3 k_i = 1,000$$


$$k_{i+1} = k_i \cdot n$$

$$n \rightarrow \min \tag{5}$$

bu yerda k_i – ta'sir etuvchi omil mezoni, n – natural son, $n > 1$.

Bu ifodani munosib ravishda ifodalash uchun muammoni bir nechta yechim variantlaridan eng yaxshisini tanlash uchun qo'llaniladigan iyerarxiyalari tahlili usulidan foydalaniladi. Baholash tizimidagi mezonlarini vaznini baholashda Mpriority 1.0 dasturidan foydalanildi (11 - rasm).

1-jadval



11 – rasm. Mezonlar prioritetini hamda xalqaro prioritetlarni aniqlash

Bundan vazn koeffitsiyenti V_k ni aniqlash uchun har bir mezonning muhimlik darajasi kiritiladi (1– jadval).

2-jadvalda ko'chki jarayoni faolligini hisobga olishga imkon beruvchi koeffitsiyenti D ning qiymatlari keltirilgan.

2-jadval

Ko'chki jarayonining faollik koeffitsiyenti D

Koeffitsiyent	Ta'sir etuvchi omil	Qisqa ta'rifi	Baholash bali
			Loyli gruntlar
D	Ko'chki jarayoni faolligi	a) barqaror	0.8
		b) vaqtincha barqaror	1.1
		v) faol rivojlanayotgan	1.4


Kelib chiqqan ballar intervali ma'lum tartibda beshta bosqichga ajratiladi. Har bir pog'onaning bahosi hududdagi temir yo'llarida ko'chishga moyil uchastkalarni vizual kuzatish natijasida olingan ma'lumotlardan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bundan tashqari, chegaraviy qiymatlarni aniqlashda ko'rib chiqilayotgan barcha

omillarning hammasi bitta yonbag'irda jamlangan bo'lmashligi mumkinligi ham e'tiborga olindi. Integral bali 170 dan ortiq bo'lgan uchastkalar birinchi toifaga kiritiladi.

Inson hayoti faoliyati bilan bog'liq noxush oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan hollarda ko'chki hodisasi xavfli bo'lib qoladi. Agar "inson omili" yo'q bo'lsa, yonbag'irni siljishga moyilligi o'ta xavfli deb hisoblanmaydi. Shuning uchun, kelib chiqishi mumkin bo'lgan zararlar toifasini aniqlashda temir yo'lining ahamiyati (toifasi)ni hisobga olish zarur. Ustuvorlikni buzilishining ehtimoliy iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini hisobga oluvchi xususiy koeffitsiyent (H_{ki})lar yig'indisi sifatida olinadigan zarar Z ni integral ko'rsatkichi quyidagiga teng:

$$Z = \sum H_{ki} = H_{k1} + H_{k2} + H_{k3} + \dots + H_{k5} \quad (6)$$

Baholash ballari yig'indisiga ko'ra uchastkalar ham beshta toifaga (darajaga) ajratiladi (12-rasm).



12-rasm. Temir yo'ldagi baholash baliga muvofiq belgilangan kelib chiqishi ehtimoli bo'lgan ziyon toifalari

Siljish ehtimoli va kelib chiqishi mumkin bo'lgan ziyonlar toifasi aniqlangandan so'ng, 3-jadvalga asosan o'rganilayotgan hududning xavf toifalarining birontasiga taalluqli ekanligi belgilanadi: I - "juda yuqori", II - "yuqori", III - "o'rtacha", IV - "past", V - "juda past". Bunday yondashuv qisqa muddat ichida hamda muhandis-geologik qidiruvlar yetarli darajada bo'lmaganda o'z vaqtida avariya

mayil uchastkalarni aniqlash, temir yo'llar ekspluatatsiyasiga doir ishlar hajmini samarali rejalash, shuningdek muhandislik himoya inshootlarini loyihalash va qurishda qaysi biri muhimroq ekanligini belgilash imkonini yaratadi.

3-jadval

Siljish va ziyonlarni kelib chiqish ehtimoli toifasi bilan bog'liq ko'chki xavfi toifasi

Kelib chiqish ehtimoli bo'lgan ziyonlar	Siljish ehtimoli toifalari				
	H_{k1}	H_{k2}	H_{k3}	H_{k4}	H_{k5}
Z1	I	I	II	IV	V
Z2	I	II	II	IV	V
Z3	II	III	III	IV	V
Z4	IV	IV	IV	IV	V
Z5	V	V	V	V	V


Dissertatsiyaning "Toshguzar-Boysun - Qumqo'rg'on temir yo'lida ko'chki xavfini baholash" deb nomlangan to'rtinchi bobida xavfli ekzogen geologik jarayonlarning rivojlanishining geotexnik monitoringi, ko'chki xavfini dala kuzatuv natijalari, ko'chki uchastkasi ustuvorligini hisoblash natijalari taqdim etilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, barcha ko'chki jarayonlari ikkinchi darajali, chunki ular namlikga ega bo'lgan qadimgi ko'chkilar hududida paydo bo'lgan.



13-rasm. Toshg‘uzor-Boysun-Qumqo‘rg‘on temir yo‘lining 103,5 km uchastkasining kosmik surati


Keltirilgan grafik bo‘yicha ko‘chkini vertikal va gorizontal siljish tezligi mavsum bo‘yicha turlichadir.



14- rasm. 103,5 km uchastkasidagi ko‘chkining gorizontal va vertikal siljishining grafigi

Temir yo‘ning 103-kilometrda ko‘chki uchastkasining o‘rta qismida o‘rnatilgan Rp 4 da 2,3 sm gorizontal va -10,5 sm vertikal siljish, Rp 7 da 2,9 sm gorizontal va -0,8 sm vertikal siljish, Rp 10 da 2,9 sm gorizontal va -0,1 sm vertikal siljish, Rp 12 da 2,1 sm gorizontal va -0,5 sm vertikal siljish, Rp 19 da 2,6 sm gorizontal va 0,0 sm vertikal siljish kuzatildi. Ko‘chkining pastki qismida Rp 16 da 5,6 sm gorizontal va 0,2 sm vertikal siljish kuzatildi. Ko‘chki xavfini baholash temir yo‘ning 103.5 km ko‘chki uchastkasida o‘rnatilgan repperlardagi (Rp) kuzatuvlar ma‘lumotlari natijalarini matematik tahlil qilish asosida amalga oshirildi.


Xatoliklari chiziqli modelga nisbatan kam bo‘lgan ushbu modeldan foydalanib keyingi uch davr uchun ko‘chki massivining minimal siljish qiymati 17,1025 sm; 17,9335 sm va 18,8027 sm ni tashkil etishi prognoz qilindi.



15- rasm. Kvadratik trend modeli grafigi

Temir yo‘l yer poltnosi joylashgan yonbag‘ir ustivorligini aniqlash CHEU dan foydalanib MIDAS GTS NX hisoblash kompleksida amalga oshirilgan. Toshguzar – Boysun - Qumqo‘rg‘on temir yo‘l uchastkasi 103 km yonbag‘ri ustivorligini hisoblash ikki muhandislik-geologik qirqimi (16- 18- rasmlar) uchun shu hududda tarqal-


gan gruntrlarni suvga to‘yinish darajasi (nam va quruq) ni inobatga olib amalga oshirildi.



**16-rasm. Temir yo‘l yer polotnosini inobatga olgan holda hisoblash modeli:
a - 1-1 geologik qirqim bo‘ylab; b - 3-3 geologik qirqim bo‘ylab**

Hisoblashda quyidagi turdagi yuklar hisobga olinadi: grunt massivining o‘z vazni; temir yo‘l yer polotnosining usti bo‘ylab bir xil taqsimlangan yuk; seysmik ta’sirdan yuk.

MIDAS GTS NX hisoblash kompleksida gruntlar hususiyatini inobatga olish uchun Mor-Kulon modeli qo‘llanilgan. MIDAS GTS NX da hisoblashda yonbag‘ir ustuvorligini hisoblash uchun reduksiya usuli (SRM) va zo‘riqlashlarni tahlil qilish usuli (SAM) usullaridan foydalanilgan:




17-rasm. KDHni hisoblashda temir yo‘l ko‘tarmasining holatini 1-1 geologik qirqimda yonbag‘irni nam hisoblashdagi siljishlar: a - X o‘qi bo‘ylab (ko‘tarma asosida 2 sm); b - Y o‘qi bo‘ylab (10 sm)

Temir yo‘l yer polotnosi joylashgan yonbag‘dagi 1-1 va 3-3 geologik qirqimlardan olingan gruntlarning namunalari ikki holati uchun ustuvorlik, siljishlar va zaxira koeffitsiyentini hisoblangan (4, 5–jadval).

4-jadval

1-4 variantlar uchun yonbag‘ir ustuvorligi koeffitsiyentlari (asosiy yuklar ta’siri inobatga olingan, seysmik ta’sir hisobga olmagan holda)

Hisobiy holat nomi	Asosiy yuklar uyg‘unligi	
	SRM usuli	SAM usuli
Variant №1 (Kesim 1-1, quruq yonbag‘ir)	$K_{ust}=2,3$	$K_{ust}=3,1$
Variant №2 (Kesim 1-1 nam yonbag‘ir)	$K_{ust}=2,2$	$K_{ust}=1,65$
Variant №3 (Kesim 3-3 quruq yonbag‘ir)	$K_{ust}=2,8$	$K_{ust}=2,33$
Variant №4 (Kesim 3-3 nam yonbag‘ir)	$K_{ust}=1,9$	$K_{ust}=1,59$
Variant №1 + t/y ko‘tarmasi (Kesim 1-1, quruq yonbag‘ir)	$K_{ust}=2,28$	$K_{ust}=3,0$
Variant №2 + t/y ko‘tarmasi (Kesim 1-1 nam yonbag‘ir)	$K_{ust}=2,01$	$K_{ust}=1,65$
Variant №3 + t/y ko‘tarmasi (Kesim 3-3 quruq yonbag‘ir)	$K_{ust}=2,8$	$K_{ust}=2,33$
Variant №4 + t/y ko‘tarmasi (Kesim 3-3 nam yonbag‘ir)	$K_{ust}=1,9$	$K_{ust}=1,59$



18-rasm. KDHni hisoblashda temir yo‘l ko‘tarmasining holatini 3-3 geologik qirqimda yonbag‘irni nam hisoblashdagi siljishlar: a - X o‘qida (ko‘tarma asosida 0,8 sm); b -Y o‘qida (0,5 sm)

5-jadval

1- 4 sonli variantlar uchun nishab yonbag‘ir ustuvorligi koeffitsiyentlari (seysmik ta‘sir hisobga olgan holda maxsus yuklar uyg‘unligi)

Hisobiy holat nomi	Asosiy yuklar uyg‘unligi	
	SRM usuli	SAM usuli
Variant №1 (Kesim 1-1, quruq yonbag‘ir)	$K_{ust}=1,51$	$K_{ust}=1,6$
Variant №2 (Kesim 1-1 nam yonbag‘ir)	$K_{ust}=1,27$	$K_{ust}=1,12$
Variant №3 (Kesim 3-3 quruq yonbag‘ir)	$K_{ust}=1,47$	$K_{ust}=1,66$
Variant №4 (Kesim 3-3 nam yonbag‘ir)	$K_{ust}=1,21$	$K_{ust}=1,16$
Variant №1 + t/y ko‘tarmasi (Kesim 1-1, quruq yonbag‘ir)	$K_{ust}=1,51$	$K_{ust}=1,6$
Variant №2 + t/y ko‘tarmasi (Kesim 1-1 nam yonbag‘ir)	$K_{ust}=1,27$	$K_{ust}=1,11$
Variant №3 + t/y ko‘tarmasi (Kesim 3-3 quruq yonbag‘ir)	$K_{ust}=1,46$	$K_{ust}=1,65$
Variant №4 + t/y ko‘tarmasi (Kesim 3-3 nam yonbag‘ir)	$K_{ust}=1,20$	$K_{ust}=1,15$

SRM usuli yordamida hisoblangan ustivorlikning zaxira koeffitsiyenti yetarli ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishiga qaramay, SAM usuli seysmik ta‘sir ostida nam yonbag‘irning ustivorlik zahirasi yetarli emasligini ko‘rsatadi.

Temir yo‘l yer ko‘tarmasi va poyezddan tushadigan yuklanish ta‘sirini inobatga olib o‘tkazilgan hisoblar, yuklanish hisobga olinmagan holatdagi yonbag‘ir ustivorligining zaxira koeffitsiyenti kamayish tendensiyasiga ega ekanligini ko‘rsatadi, ayniqsa seysmik ta‘sir ham inobatga olinganda.

Ko‘chki oqibatida yer polotnosiga yetkazilgan talofatlarini bartaraf etishga 12 soat, uni stabilizatsiyasi uchun yana 5 kun kerak deb taxmin qilinsa, tashish jarayonini tashkil etuvchi operatorga umumiy holda $(51164,2+44354.1) = 95518,2$ ming so‘m zarar yetkazilishi mumkin.

XULOSA

O‘zbekiston temir yo‘llarida ko‘chki xavfini baholash” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar keltirilgan:

1. Temir yo‘l yer polotnosining tog‘ yonbag‘rida joylashgan 21 ta uchastkani o‘rganish va bir jinsli gruntlardan tarkib topgan qiyalik barqarorligini hisoblash natijalariga ko‘ra ko‘chki hosil qiluvchi asosiy omillarning ahamiyatlilik koeffitsiyentlari topildi. Bunda eng katta ta‘sir etuvchi omil yer osti suvlarining harakati va yonbag‘ir qiyaligi ekanligi aniqlandi.

2. O‘tkazilgan tadqiqot va hisob-kitoblar natijasida ko‘chki hosil qiluvchi asosiy omillar ta‘sirida temir yo‘l yonbag‘ir ustuvorligining o‘zgarish qonuniyatlari aniqlandi. Ustivorlik koeffitsiyenti gruntlar turiga qarab yonbag‘ir sirti qiyaligi 45°

dan oshganda eng katta kamayish qumli loy gruntlarida **48%**ga, yonbag'ir balandligi 12 m dan oshganda eng katta kamayish loyli grunt uchun **42%**ga, yonbag'irni yer osti suvlari bilan maksimal to'yinishi oqibatida esa eng katta kamayish qumli loy gruntlar uchun **47%** ni ko'rsatdi.

3. Ustuvorlikni baholashning ikki usulidan foydalanish temir yo'l yer polotnosi joylashgan yonbag'ir haqida to'liq ma'lumotlarni olishga, hamda ushbu yonbag'ir ustuvorligini oshirishga oid muhandislik yechimlari va konstruktiv vositalardan foydalanishda maqbul variantlarini tanlash imkonini beradi.

4. Temir yo'llarga ko'chki ta'siri xavfini baholash uchun takomillashtirilgan yarim miqdoriy usul taklif etildi. Natijada, uning yordamida muhandislik-geologik, gidrologik, geodezik tadqiqotlar ma'lumotlari yetarli bo'lmaganda qisqa vaqtda temir yo'l uchastkalarining ko'chkiga moyillik darajasini baholash mumkin.

5. Temir yo'llarga ko'chki xavfini baholashning takomillashtirilgan yarim miqdoriy usuli xavfli hududlarni o'z vaqtida aniqlash, ekspluatatsiya ishlari hajmini samarali rejalashtirish, muhandislik himoya inshootlarini qurishda ustuvor yo'nalishlarni belgilash imkonini beradi. Natijada geotexnik kuzatuvlar asosida xavfni nazorat qilish bo'yicha ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar temir yo'l uchastkadagi holatni kuzatish va zarur bo'lganda qo'shimcha texnik yechimlarni o'z vaqtida amalga oshirish imkonini beradi. Chora-tadbirlar tarkibi va natijalarni olish davriyligi ko'chki xavfi toifasiga qarab belgilanadi.

6. Yuqori aniqlikdagi GPS priyomniklar yordamida reperlarda (Rp) olib borilgan dala kuzatuv ma'lumotlari asosida qurilgan kvadratik modelni ko'chkini prognozlash uchun tavsiya etish, chunki chiziqli modelga nisbatan xatoliklar kam bo'lgan ushbu modeldan foydalanib Toshg'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'lining "Chashmayxafizon – Aqrabot" uchastkasining 103-kilometrda keyingi uch davr uchun ko'chki massivining minimal siljish qiymati **17,1025 sm; 17,9335 sm** va **18,8027 sm** ni tashkil etishi prognoz qilindi.

7. Taqiqot ishida Qashqadaryo viloyatidan o'tadigan Toshg'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'lining "Chashmayxafizon – Aqrabot" uchastkasining 103-kilometrda hisoblash ishlari bajarildi. Hisoblar chekli elementlar usulini (ChEU) qo'llagan holda MIDAS DM dan foydalangan holda, muhandislik – geologik qidiruvlari natijalarida olingan qirqimlar asosida amalga oshirilgan. Natijada, yonbag'ir ustuvorligi SRM va SAM usullaridan foydalanib hisoblanganda mos ravishda **1,20** va **1,11** ga teng ekanligi aniqlandi va hozirgi kunda ko'chki xavfi mavjud ekanligini ko'rsatdi.

8. Taklif etilayotgan usulning iqtisodiy samaradorligini baholash Toshg'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'li misolida ko'rib chiqildi. Ko'chkilar oqibatida obektlarga yetkaziladigan moddiy zararni aniqlashning belgilangan uslubiyati mavjud bo'lmaganligi sababli temir yo'l yer polotnosiga yetkazilishi mumkin bo'lgan ziyonni ikki holati uchun baholandi. Hisoblashlar natijasida, temir yo'l yer polotnosining ko'chki oqibatidagi talofatlarini bartaraf etish va stabilizatsiyasi vaqtida tashish jarayonini tashkil etuvchi operatorga umumiy holda **95518,2** ming so'm zarar yetkazilishi, temir yo'l yer polotnosini qayta tiklash ishlariga 100 metr uchun **781 211 704** so'm sarflanishi hisoblar yordamida aniqlandi. Bu esa, o'z navbatida, temir yo'l yer polotnosi ustuvorligini ta'minlashda kumulyativ samara beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.15/31.08.2022.Т.73.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ТРАНСПОРТНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТРАНСПОРТНЫЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

МУКАРРАМОВ РАМАЗОН ХУСИНОВИЧ

**ОЦЕНКА ОПОЛЗНЕВОЙ ОПАСНОСТИ НА ЖЕЛЕЗНЫХ ДОРОГАХ
УЗБЕКИСТАНА**

05.08.02 – “Железнодорожный путь и путевое хозяйство”

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.3.PhD/T4020.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном транспортном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (разюме)) размещен на веб-сайте Научного Совета (www.tstu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Джаббаров Саидбурхон Тулаганович**
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Шаяхметов Саулет Берликашевич**
доктор технических наук, профессор

Абдукамилов Шавкат Шухратович
кандидат технических наук, доцент

Ведущая организация: **Институт "Узогирсаноатлойиха" АО**

Защита диссертации состоится «5» мая 2025 года в 15³⁰ часов на заседании Научного совета DSc.15/31.08.2022.T.73.04 при Ташкентском государственном транспортном университете. (Адрес: 100167., г. Ташкент, ул. Темирйўлчилар, 1. Тел: (+99871) 299-00-01; факс: (99871) 293-5754; e-mail: rektorat@tstu.uz., tashiit@exat.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного университета (зарегистрирована № 240). (Адрес: 100067., г. Ташкент, ул. Темирйўлчилар, 1. Тел.: (+99871) 299-05-66).

Автореферат диссертации разослан «24» апреля 2025 года.
(реестр протокола рассылки № 20 от «24» апреля 2025 года).

А.И. Адилходжаев
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

У.З. Шермухамедов
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

А.А. Ишанходжаев
Председатель научного семинара при Научном совете
по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире особое внимание уделяется защите железных дорог от стихийных бедствий и техногенных катастроф, то есть защите от оползней, разработке мер по снижению последствий оползней, оценке оползневой опасности. В настоящее время в развитых странах, в том числе в России, Японии, Германии, США, Англии, Китае, Южной Корее, Чехии, Испании, Италии и других странах проводятся различные научно-исследовательские работы по созданию защитных сооружений для защиты железных дорог от оползней в сложных климатических и топографических условиях, обеспечению устойчивости откосов. В связи с этим особое внимание уделяется выявлению причин возникновения оползней грунта на железных дорогах, проходящих через горные районы, и прогнозированию оползней, совершенствованию существующих методов оценки оползневой опасности, моделированию оползневой опасности и повышению эффективности мер, направленных на предотвращение оползневой опасности.

В мире ведутся научно-исследовательские работы, направленные на обеспечение устойчивости оползневых склонов и создание защитных сооружений для защиты экономических и социальных объектов от оползневой опасности, определение механизма формирования и развития опасных геологических процессов, мониторинг с использованием передовых технологий, оценка высоковероятных рисков. В этом направлении, в том числе, обеспечение устойчивости железнодорожного земляного полотна в оползнеопасных районах, снижение (устранение) негативного воздействия оползней, разработка метода оценки оползневой опасности с использованием современных математических моделей считаются актуальными задачами.

В республике проводятся широкомасштабные мероприятия по развитию всех видов транспортных коммуникаций, в том числе по проектированию, строительству и эксплуатации сооружений железнодорожного транспорта, развитию дорожно-транспортной инфраструктуры, выявлению опасных геологических процессов, налаживанию их постоянного наблюдения на территориях, расположенных на объектах железнодорожного транспорта, и достигаются определенные результаты. В связи с этим, задачи, указанные в пункте 197 Указа Президента Республики Узбекистан "О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы," в том числе УП-60 от 28 января 2022 года, а именно... ускорение проекта строительства новой железнодорожной линии...² Определены задачи, такие как,. При реализации этих задач важно обеспечить безопасное и бесперебойное движение поездов всех категорий на железных дорогах в оползнеопасных районах.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-5647 от 1 февраля 2019 года "О мерах по коренному

² Указа Президента Республики Узбекистан УП№60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года

совершенствованию системы государственного управления в сфере транспорта," Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-2909 от 20 апреля 2017 года "О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования," № ПП-3422 от 2 декабря 2017 года "О мерах по совершенствованию транспортной инфраструктуры и диверсификации внешнеторговых маршрутов грузоперевозок на 2018-2022 годы," а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование проведено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан II. «Энергетика, энерго- и ресурсосбережение».

Степень изученности проблемы. Теоретические и практические исследования по обеспечению эксплуатационной надежности железнодорожных путей, построенных в сложных природно-климатических условиях, в оползнеопасных районах, обеспечению устойчивости железнодорожного полотна проводятся в научных центрах, университетах и научно-исследовательских институтах ведущих стран мира, в том числе: Петербургский государственный университет железных дорог (Россия), Российский транспортный университет (Россия), Научно-исследовательский институт железнодорожного транспорта (ВНИИЖТ), Чанганский университет (Китай), Университет Ауберна, Строительная и экологическая инженерия, Ауберн (США), Миланский политехнический институт, Факультет гражданской и экологической инженерии, Милан (Италия), Токийский городской университет, Лаборатория геотехнической геоэкологической инженерии (Токио), Ошский технологический университет имени академика М. Адышева (Кыргызстан), а также Ташкентский государственный транспортный университет (Узбекистан).

